

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNI O'ZINI-O'ZI TARBIYALASH

Oqbo taev Jamshid Yo'ldoshevich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalashda o'z-o'zini kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'ziga hisob berish, o'z faoliyati natijalarini tahlil etish, atrofdegilarni o'ziga munosabatini o'rganish, o'z ichki ehtiyojlarini jilovlay olishi masalalari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek maqolada o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari, e'tiqodlari, mayllari, irodasi, intilishlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqodi, inson huquqlarini hurmat qilish va tan olish, vatanga sadoqat va uning ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilish ruhiyatini namoyon etishlarida kompetensiyaviy yondashuv zarurligi e'tirof etib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, o'smir, o'quvchi, pedagog, o'qituvchi, ta'lim, tarbiya, milliy, umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy rivojlanish, ijtimoiy-pedagogik zaruriyat, intellektual, jismoniy, axloqiy, xuquqiy.

САМООБРАЗОВАНИЕ УЧЕНИКОВ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА

Акботаев Джамшид Юлдошевич

Преподаватель кафедры «Педагогика и психологии» Узбекского государственного университета мировых языков

В данной статье на основе компетентностного подхода, самонаблюдения, самоконтроля, ответственности за себя, результатов своей деятельности рассматриваются в процессе самообразования студентов анализ, изучение отношения окружающих людей к себе. , подробно анализируются вопросы умения контролировать свои внутренние потребности. Также в статье необходима необходимость грамотного подхода в проявлении у студентов личных интересов, убеждений, склонностей, воли, стремлений, веры в национальные и общечеловеческие ценности, уважения и признания прав человека, верности Родине и дух искреннего служения его развитию был отвергнут.

Ключевые слова: компетентностный подход, подросток, студент, педагог, учитель, образование, воспитание, национальные, общечеловеческие ценности, духовное развитие, социально-педагогическая необходимость, интеллектуальная, физическая, моральная, правовая.

SELF-EDUCATION OF STUDENTS BASED ON A COMPETENT APPROACH

Akbotaev Jamshid Yuldoshevich,

Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of World Languages

In this article, on the basis of a competency-based approach, self-observation, self-control, responsibility for oneself, the results of one's activities, analysis and study of the attitude of surrounding people towards oneself are considered in the process of students' self-education. , the issues of the ability to control one's internal needs are analyzed in detail. The article also requires the need for a competent approach in demonstrating students' personal interests, beliefs, inclinations, will, aspirations, faith in national and universal values, respect and recognition of human rights, loyalty to the Motherland and the spirit of sincere service to its development was rejected.

Key words: competence-based approach, teenager, student, educator, teacher, education, upbringing, national, universal values, spiritual development, social and pedagogical necessity, intellectual, physical, moral, legal.

Zamonaviy talablarni hisobga olgan holda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni o'zini—o'zi tarbiyalash mexanizmlarni takomillashtirish ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayanib [2] o'quvchilarni ma'naviy rivojlanish darajasi, o'z-o'zini anglashi hamda maqsadlari, qiziqishlari va intilishlarini jamiyat manfaatlariga moslashtira olishi alohida ahamiyatga ega. O'smir yoshidagi o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni ijtimoiy-pedagogik xarakterga ega bo'lgan faoliyatdir. Uning mazmunini jamiyat a'zolari tomonidan tan olingan axloqiy, huquqiy me'yorlar belgilaydi.

Shuning uchun davr talabidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayonida yangicha, mustaqil fikrlovchi, iymon e'tiqodi, mafkuraviy immuniteti mustahkam, milliy tafakkur va dunyoqarashga ega bo'lgan barkamol avlodni shakllantirish uchun jamiyatda qabul qilingan axloqiy, xuquqiy me'yorlar o'smirlar ongida singrilishi maksadga muvofiq. Chunki aynan, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi o'zini nazariy, intellektual, jismoniy, axloqiy, xuquqiy bir so'z bilan aytganda kompetensiyaviy jihatdan takomillashtirish boradi.

Bilamizki, har bir shaxsning jamiyat maqsad va manfaatlariga mos keluvchi intilishlari uning ma'naviy dunyosi, nuqtai nazarlari va shu asosda shakllangan ideali orqali tartibga solinadi. O'smirlarda roksak axloqiy ideallarni shakllantirish bugungi kunda ma'naviy ehtiyojga aylandi. Chunki bugungi modernizatsiya sharoitida ayrim o'quvchi-yoshlarda roksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini etarli rivojlanmaganligi ko'zga tashlanmoqda. [2]

Ijtimoiy-axloqiy faol, hayot talablari asosida o'z ehtiyoji uchun erkin qaror qabul qila oladigan yoshlarni tarbiyalash zarurati o'quvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalash darajasini tarkib toptirish ehtiyojini vujudga keltirdi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar ongining rivojlanishi, o'zligini anglashi, umumiy ijtimoiy va axloqiy qoidalarni o'zlashtirishning ichki ehtiyojga aylanishiga olib keladi. O'quvchi faoliyatini nazorat qilish va demokratik tarzda baholash, uning insoniy sha'ni, shaxsiy g'ururi asosida odob-ahloq normalarini tartibga solish vositalari va metodlarini tanlash ijtimoiy-pedagogik zaruriyatga aylanmoqda.

Ijtimoiy-pedagogik kuzatishlar va mavjud tajribalar shundan dalolat beradiki, insonning ma'naviy dunyosi demokratik va o'z-o'zini boshqarish vositalaridan biridir. Bunda har bir shaxs o'z xulq-atvorini ichki mayllar va axloqiy me'yorlar yordamida tartibga soladi. Chunki shaxsning amaliy faoliyatida mayllar uning xulq-atvorini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsning o'zini tushunishi, o'z faoliyatiga ongli yondashishi esa unda o'zini-o'zi tarbiyalash istagini kuchaytiradi. Bu jarayonda o'zini-o'zi tarbiyalash o'z xulq-atvoriga baho berish mezoniga aylanadi. Insonning hayotiy maqsadlari uning ichki dunyosi va jamiyat talablariga mos kelishini tahlil qilish va umumlashtirish pedagogikaning muhim nazariy masalalaridan biridir.

Demak, o'smirlik davrida o'quvchilarni o'zi yashayotgan jamiyat, xalq manfaatlarini yo'lida fidoiylik ko'rsatish ruhida tarbiyalash, uning ideali jamiyat va ijtimoiy taraqqiyot talablariga mos kelishi shaxsiy hamda ijtimoiy ideallarning mos kelishini ta'minlaydi. Jamiyat va xalq hayotining demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi jarayonida yoshlarni o'zini-o'zi tarbiyalash ko'nikmasini shakllantirish maktabda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarining mohiyati va yo'nalishini belgilashi lozim. Bu masalani shaxs ichki dunyosining hayotiy ideallarga mos kelishi nuqtai nazaridan qaragan holda dialektik aloqadorlikda o'rganish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning ideallarini ijtimoiy taraqqiyot talablari asosida shakllantirish, ularning ma'naviy dunyosiga yangicha yondashishni taqozo etadi.

Bunday yangicha yondashuv usullaridan biri - ularda o'zini-o'zi tarbiyalash ehtiyojlari va ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iborat. O'zini-o'zi tarbiyalash shaxs ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, o'smir o'z hayotini murakkab vaziyatlarda ham tartibga solishi, boshqara olishi, ijtimoiy voqelikka nisbatan aniq munosabatini belgilab olishiga xizmat qiladi. Demak, yangicha pedagogik tafakkur, kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki ular bugungi kunda zamon bilan hamnafas, dunyoqarashi teran holda, jamiyatda yashash va faoliyat ko'rsatishga tayyor bo'lishlari lozim. O'quvchilar jamiyatdagi voqea-hodisalar, o'zgarishlarga o'z munosabatlarini bildirishlari nahoyatda zarur.

Chunki bugungi kunda jamiyatdagi iqtisodiy-siyosiy o'zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari har bir shaxsga o'zini-o'zi tarbiyalashi uchun keng ko'lamlı ijtimoiy-pedagogik maydonni vujudga keltirish imkonini bermoqda. O'quvchilar o'zlarida qayday sifatlarni tarbiyalashlari, mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z o'rinlarini belgilashlari, qanday hayotiy maqsadni o'z oldlariga qo'yishlari birinchi navbatda ularning o'zlarini anglash darajalariga bog'liq. O'quvchi xuddi mana shu asosda o'zini o'z axloqi va ma'naviyatini takomillashtirishga kirishadi. Chunki shaxsga ta'sir ko'rsatishning tashqi vositalari bir qadar cheklangan imkoniyatlarga egadir.

O'quvchining hatti-harakati, axloqi va qarashlarini tizimlashtirish uchun pedagogik ta'sir vositalari bilan bir qatorda, uning o'z ichki imkoniyatlaridan birinchi navbatda o'zini-o'zi tarbiyalash imkoniyatidan unumli foydalanish kerak. Buning uchun esa o'quvchining ichki imkoniyatlari bilan pedagogik imkoniyatlar bir qadar o'zaro mos kelishi lozim. Bunda birinchi navbatda inson vujudining biologik hamda ijtimoiy ta'sirlarga moslashish xususiyatidan kelib chiqiladi. O'quvchining hatti-harakatini faqat buyruq bilan boshqarish, uning erkinlik, o'rganayotgan hodisalarga ijodiy yondashish, murakkab vaziyatlarda to'g'ri yo'l topish, doimiy izlanish kabi imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

O'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalashning muhim shartlaridan biri ularda mustaqil, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining namoyon bo'lishidir. SHuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish uchun ularni mustaqil, tanqidiy fikrlashga o'rgatish ham muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy kuzatishlarimiz davomida o'smir yoshidagi o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni ularga ijobiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi degan xulosaga keldik. Mazkur xulosaga tayanib kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, "Integrativ hamkorlik" asosida o'smirlarni o'zini-o'zi tarbiyalash jarayonini takomillashtirishning tizimli-funksional modelini yaratish vazifasini qo'ydik.

Kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash ta'lim oluvchining keyingi

faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatishi ko'plab tadqiqotlarda asoslab berilgan.

O'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash mexanizmlarini belgilovchi axloq mezonlari mavjud bo'lib, u pedagog olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi. Jumladan, V.A.Suxomlinskiyning o'smir o'g'il bolalarda uch narsani; «yigitlik burchi, yigitlik mas'uliyati hamda yigitlik nomusi»ni tarkib toptirish zarurligini e'tirof etishi bejiz emas. Haqiqatan ham o'smir o'g'il bolalar ongida burch, mas'uliyat va or-nomus tushunchalarini tarkib toptirish o'zini-o'zi tarbiyalash debochasi bo'lgan yaxshi o'g'il, kelajakda g'amxo'r ota ishonchli do'st, haqiqiy vatanparvar fuqaroni tarbiyalash demakdir.

O'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalash sohasidagi manbalarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, bu muammoning turli qirralari tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb qilmoqda. Bir qator psixolog olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganib chiqqanimizda, o'smirlik davrida bolalarda “krizis”, “o'tish”, “o'smir yoshi inqirozi” boshlanishi ularning organizmidagi anatomik-fiziologik o'zgarishlar bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. [11]

F.A.Akramova tadqiqotlari tahliliga asoslanib aytishimiz mumkinki, o'smir o'zi-o'zi tarbiyalash uchun, avvalo o'zini atroflicha chuqur o'rganish, o'z ishidagi ixtiyor va kamchiliklarni ko'ra olish lozim. O'smirlarda o'zini-o'zi tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim mezon (belgi, xususiyat) ularni ma'lum bir jamoaga birlashtirishdan iboratdir. [3]

E.U.Shermanov tomonidan o'smirlarda islohotlarga daxldorlik fazilatlarini shakllantirish [10] masalalariga alohida urg'u berib o'tilgan. Shuningdek olim o'z tadqiqotlarida o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalashda mezonlariga alohida to'xtalib o'tib, unda shaxsning ichki his-tuyg'ulari o'zini-o'zi boshqarish jarayonlarni tashkil etadi degan fikr ilgari surilgan.

Biz esa, E.U.Shermanov fikrlariga tayangan holda, kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatadigan indikatorlarni o'rganib chiqib, ularni quyidagi mazmunda tasnif etdik:

- o'z-o'zini kuzatish;
- o'z-o'zini nazorat qilish;
- o'z-o'ziga hisob berish;
- o'z faoliyati natijalarini tahlil etish;
- atrofdagilarni o'ziga munosabatini o'rganish;
- o'z ichki ehtiyojlarini jilovlay olish;

Shuningdek:

- o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari, e'tiqodlari, mayllari, irodasi intilishlari;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqod, inson huquqlarini hurmat qilish va tan olish, vatanga sadoqat va uning ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilish ruhiyatini namoyon etish; [10]

S.B.Sanaeva ilmiy izlanishlarida tarbiya jarayonining o'ziga xosligi tarbiyaviy imkoniyatiga ko'ra yangi tarbiya sub'ektlarini iuzaga keltirish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tgan. Unda: talaba – fuqaro – shaxs hamda professor-o'qituvchi – professional, tarbiyachi, fuqaro-shaxs; talabalar jamoasi; professor-o'qituvchilar jamoasi; talabalar, professor-o'qituvchilar, jamoatchilik vakillari birlashmalarima'suliyati ko'rsatib o'tilgan. Shunga ko'ra biz olib borgan izlanish va tajribalar ijtimoiylashuv jarayonida o'smirlarni o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishda yangi tarbiya sub'ektlarini ta'sir o'tkazmoqda. Ushbu holatlar o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalashda etarli malakasi yo'qligi bilan izohlanadi. [9].

O.Musurmanovning fikricha o'smir yoshidagi o'quvchilarning kamol topishida katta ahamiyatga ega bo'lgan tarbiya kategoriyalaridan biri o'zini-o'zi tarbiyalash hisoblanadi. Keng ma'noda bu kategoriyaga tarbiyaning o'ziga xos usuli deb qarash mumkin. O'zini-o'zi tarbiyalash shaxs ichki imkoniyatlarini ishlatib, o'z tashabbusi bilan ajdodlar tajribasini o'rganish jarayoni hamdir. O'smir yoshidagi o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalashga erishishda ijtimoiy muhit: makromuhit-insoniyatni o'rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar; mikromuhit-bevosita insonni qurshab olgan oila, mahalla, mehnat jamoasi, o'quv guruhlari kabi tor doiradagi muhit; yoshlar faol kommunikatsiyaga kirishadigan oila a'zolari, turli toifa shaxslar va guruhlarning ijtimoiylashib borishi; o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarning (ota-onalar, o'qituvchilar, fuqarolik jamiyati institutlari mutaxassis xodimlari, keng jamoatchilik, tarbiyalanuvchilarning) ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlilik darajasi; ijtimoiy tarbiyaga oid ilmiy-nazariy, metodologik, ommabop, ijtimoiy-siyosiy manbalarning hammabop va ommabopligi muhim ahamiyat kasb etadi. [8].

Biz esa olimaning fikrlarini mantiqiy davom ettirib kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirishda: ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirish; zamonaviy keng ilmiy dunyoqarash va tolerantlikni rivojlantirish; yoshlarda mafkuraviy immunitet va milliy o'zlikni anglashni shakllantirish; fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish kabi to'rtta ustuvor yo'nalishlarni tarbiyalash masalalariga ahamiyat qaratish lozimligini qayd etib o'tmoqchimiz.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarga asoslangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, o'quvchilarni o'zini-

o'zi tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish jarayonining harakatlantiruvchi kuchi ijtimoiy-pedagogik talablar hamda ularning ichki ehtiyojlaridir. Alohida e'tirof etib o'tish joizki, o'smirlik davrida ularning yoshiga xos bo'lgan ichki pozitsiyaning paydo bo'lishi, irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishi, faollanuvchan ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, axborot oqimining oshishi, jamiyat taraqqiyotining tezlashuvi, jamiyatdagi turli oqimlar jumladan: terrorizm, axborot hujumlari, narko biznes, spid xavfining kuchayishi va ommaviy madaniyat girdobiga tushib qolmasliklari uchun o'quvchilarda o'z nuqtai nazarlari, hayotiy tajribalari va yosh xususiyatlari bilan bog'liq holda mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish uchun pedagoglar oldida Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasida ko'rsatib o'tilgan bir qator vazifalar:

- tashkiliy (muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi; -bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish; -o'zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o'rgatish; -kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo'lishi; -bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi; -o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lishi;); - tarbiyaviy (ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarini shakllantirish; xavfsiz hayot ko'nikmalarini mustahkamlash; kasblar to'g'risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish; vijdonan mehnat qilish ko'nikmalarini o'rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish; muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish; o'zini-o'zi baholashga o'rgatish; faoliyatda o'zini ko'rsatishga intilishni rag'batlantirish; tengdoshlari bilan ma'naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish.); - stimullashtirish (ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi; faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi; shaxslararo munosabatlarning differentsiallashtirish, referent guruhlarning paydo bo'lishi; fuqarolik pozitsiyasi, o'zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi; milliy qadriyatlar, an'analarga hurmatning namoyon bo'lishi; o'zini-o'zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi; o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qilishga intilish; xavfsiz hayot madaniyati bo'yicha bilim va ko'nikmalarining namoyon bo'lishi; axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e'tiqodning shakllanishi; pozitiv ijtimoiy mo'ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo'lidagi intilishlar; ma'naviy-axloqiy printsiplarning qat'iylashuvi; ichki his-tuyg'ularga e'tiborning oshishi, emotsional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo'lishi; mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetentsiya va fazilatlarining odatlarga aylanishi) ijrosini ta'minlash kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirishda poydevor bo'lib hisoblanadi [2].

Izchillik qoidalariga amal qilgan holda biz o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni tashqi omillar, ijtimoiy munosabatlar, tarbiya va atrofdagi jamoalarning, hamda ichki omillar – oila, o'z tengdoshlari orasidagi munosabatlar ta'siri natijasida amalga oshadi degan xulosaga keldik.

Shundan kelib chiqib o'smir yoshidagi o'quvchilarning o'zini anglashi va o'z faoliyati mohiyatini tushunishi avvalo o'zining, qolaversa sinfdosh do'stlarining ma'naviy kamolotiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Alohida qayd etish lozimki, insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba asosida jamiyat maqsad va manfaatlariga mos keluvchi o'smirlar ma'naviy dunyosi, nuqtai nazarlari va shu asosda shakllangan ideali orqali o'zini-o'zini tarbiyalash jarayonini takomillashtirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Bilamizki, inson hayotida o'zini-o'zi tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Bir qator pedagog olimlarimiz tomonidan umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari, umumta'lim maktabi va oila hamkorligi asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, o'smir yoshidagi bolalarda har xil jismoniy sifatlarning rivojlanishi geteroxron tarzda sodir bo'lishi, o'smir yakkakurashchilarning kompleks tayyorgarligida harakatli o'yinlarni qo'llash metodikasi, o'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Biroq olimlar tomonidan o'quvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish mohiyati va amalga oshirish yo'llari hali etarlicha o'rganilmagan. [7].

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish axloqiy, jismoniy hamda ijtimoiy takomillashuviga intilishlarining kuchayishi bilan izohlanadi. Shaxs shakllanishida intellektual, irodaviy, axloqiy o'zini-o'zi tartibga solish, o'z xatti-harakati maqsad va ideallari, shaxsiy sifatlarini o'zgartirishi asta-sekin barqaror maylga aylanadi. O'quvchilar o'zlarining shaxsiy sifatlarini anglab, ularni kuzatish, tahlil qilish va tasniflashga odatlanadilar. Buning natijasida o'quvchilar o'zini-o'zi baholashga yo'naltirilgan shaxsiy dasturlarini ishlab chiqadilar. Bir so'z bilan aytganda o'quvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalash orqali: xotirjamlik, so'zda ishonch va to'g'rilik, xatti-harakatga mulohaza bilan yondoshish, qat'iylilik, o'zi xaqida sababsiz biror og'iz gapirmaslik, lozim narsalardangina foydalanish, har kuni kechasi o'ziga o'zi hisobot berish, biror marotaba maqtanmaslik kabi sifat va fazilatlariga ega o'quvchi - yoshlarni

tarbiyalash ta'lim jarayonida o'zining tizimli echimini topishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/5841063>

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2019 y. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №1059-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. (www.lex.uz)

3.Artikova M.B Umumta'lim maktabi va oila hamkorligi asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun diss. Andijon 2020

4.Tajibaev S.S. O'smir yakkakurashchilarning kompleks tayyorgarligida harakatli o'yinlarni qo'llash metodikasini ilmiy-pedagogik asoslash. Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun diss. CHirchiq 2019

5.Nagmetova N.N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi maktablarining o'smir o'g'il bolalari misolida) Nukus 2018

6.Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 4 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-372-379 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 377 April, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal

7.Xodjaev B. X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari Ped. fan. nom. diss. – Toshkent, 2009. – 51 b.

8.Hakimov X.N. Umumta'lim maktablarida jismoniy va ma'naviy-tarbiya integratsiyalashuvining pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss. Camarqand 2020

9.Sanaeva S. B kompetentsiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) olish uchun yozilgan dissertatsiya. Navoiy 2020

10.Shermanov E.U. O'smirlarda islohotlarga daxldorlik fazilatlarini shakllantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss. Toshkent 2020

11.http://med.uz/salomatlik/uz/healthyEating/detail.php?ELEMENT_ID=57878